



## TILNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINI, TARAQQIYOT QONUNIYATLAR

**Qambarova Dilorom Yusupovna**

Farg'ona davlat universiteti  
gumanitar yo'nalishlar bo'yicha  
chet tillari kafedrasida dotsenti  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.8424148>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-October 2023 yil  
Ma'qullandi: 05- October 2023 yil  
Nashr qilindi: 10- October 2023 yil

### KEY WORDS

*XX asrdan boshlab tilshunoslik fanining predmetini aniqlashda yangi davr boshlandi.*

### ABSTRACT

*Tilshunoslik fanining predmeti, o'rganish manbai o'z ichki qonuniyatlariga ega bo'lgan murakkab tizim-tildir. Tilning o'ziga xos xususiyatlarini, taraqqiyot qonuniyatlarini o'rganish mazkur ijtimoiy hodisaga har tomonlama to'liq ta'rif berish imkonini yaratadi*

Tilshunoslik fanining predmeti, o'rganish manbai o'z ichki qonuniyatlariga ega bo'lgan murakkab tizim-tildir. Tilning o'ziga [xos xususiyatlarini](#), taraqqiyot qonuniyatlarini o'rganish mazkur ijtimoiy hodisaga har tomonlama to'liq ta'rif berish imkonini yaratadi. Til umumiy qonuniyatga bo'ysunuvchi o'ziga xos ramzlar tizimi bo'lib, kishilik jamiyatidagi aloqa - munosabatning eng muhim quroli, fikr ifodasi hamda fikr yuritish asosi, voqelikni [avloddan avlodga yetkazuvchi](#), insoniy kechinmalarni, his-tuyg'ularni ifoda etuvchi vositadir. Tilshunoslik tarixida tilga turlicha yondashuvlarni kuzatish mumkin.

XX asrdan boshlab tilshunoslik fanining predmetini aniqlashda yangi davr boshlandi. Hozirgi zamon tilshunoslik fanining asoschisi mashhur shveysariyalik olim F. de Sossyur (1857-1913) nazariyasi ta'sirida tilshunoslik fanining predmeti masalasi ham yangicha tus oldi. F. de Sossyurning fanidagi asosiy xizmati shundan iboratki, u birinchilar qatori tilning murakkab hodisa [ekanligini aniqlagan holda](#), yangi mukammal va aniq, shakllangan umumiy tilshunoslik nazariyasini yaratib berdi.

Tilshunoslik fanining predmetini aniqlash va uni ta'riflashga intilgan F.de Sossyurning qarashlari tilshunoslik tarixidagi muhim masalalarni hal etishda sezilarli ta'sir ko'rsatdi. F.de Sossyur fikricha, til kishilik jamiyatida bajaradigan vazifasiga ko'ra [aloqa quroli](#), fikr ifodalash vositasidir; ijtimoiy tabiati jihatidan til madaniy-tarixiy va ijtimoiy hodisa, ichki tuzilishiga ko'ra sof belgi-ishoralarni tizimidir.

Boshqa bir qator olimlar (A.Shleyxer, G. Paul, M. Myuller), tilshunoslik oliy ta'limlari ("Yosh grammatikachilar" oliy ta'limi, [Praga strukturalizmi](#), Kopengagen strukturalizmi, Amerika strukturalizmi) tilning asl mohiyatini ochib berish masalasiga o'z nuqtayi nazarlaridan yondashdilar. Ularning fikr - mulohazalari tilshunoslik sohasida erishilgan yutuqlardan hisoblansada, mazkur qarashlarning ba'zi jihatlari cheklangan edi.

Tilshunoslikning umumiy va xususiy tilshunoslik; [nazariy tilshunoslik](#), amaliy tilshunoslik kabi qator bo'limlari mavjud bo'lib, tilning ayrim jihatlari asosida umumiy qoidalar chiqariladi.

Til - ijtimoiy hodisa. Til jamiyat taraqqiyoti jarayonida yuzaga kelgan. Til - tabiiy, biologik hodisa emas; tilning mavjud bo'lishi va uning taraqqiyoti tabiat qonunlariga bo'ysunmaydi. Til butun jamiyat tarixi jarayonidagi tadrijiy davrlarning mahsuli sifatida umuminsoniy manfaatga xizmat qiladi.

Til kishilar o'rtasidagi munosabatning eng muhim quroli bo'lib, jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan va umum insoniy manfaatlarni ifoda etadi. Tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi insoniyat jamiyati bilan mustahkam bog'liq. Til insoniyat tarixi qadar qadimiydir.

Xalq qardosh qabilalar ittifoqi sifatida shakllangan murakkab tarixiy uyushmadir. Xalqning asosiy belgilari: umumiy til, umumiy hudud, madaniyat va ma'naviyat muhitning umumiyligidir. Xalqning asosiy belgilaridan biri bo'lgan milliy til o'zaro farqlanuvchi, yetakchi, iqtisodiy va madaniy markaz tili sifatida namoyon bo'ladi.

Tilning paydo bo'lishi masalasi insoniyatni qadimdanoq qiziqtirib keladi. Tilning paydo bo'lishi juda murakkabdir. Bu masala faqat tilshunoslikning emas, boshqa ko'p fanlarning: antropologiya, psixologiya va etnografiya kabi fanlarning ham o'rganish obyektidir. Tilning paydo bo'lishi masalasi - til qachon va qayerda paydo bo'lgan, dastlab nechta til bo'lgan, u yoki bu tillar qanday tuzilishda bolgan va shu kabi savollarga hali ilmiy asoslangan mukammal javob topilgan emas. Ba'zi [olimlarning fikricha](#), til taxminan besh yuz ming yillar ilgari paydo bo'lgan.

Ma'lumki, til boshqa narsa va hodisalar singari o'zgaruvchidir. Shunday ekan, besh yuz ming yil ichida tillarda qanday o'zgarish sodir bo'lganini tasavvur qilish, uni ilmiy, ham amaliy, ham nazariy nuqtayi nazardan o'rganish mumkin emas. Til taraqqiyotining yozuv paydo bo'lishidan avvalgi holati biz uchun qorong'idir. Biz faqat yozuv paydo bo'lgandan keyingi davrda ro'y bergan til taraqqiyoti to'g'risida yozma yodgorliklardan foydalanib, fikr yuritishimiz mumkin. Lekin yozuv tilni o'rganish, tilning paydo bo'lishi to'g'risidagi muammoni yoritishga to'liq imkon bermaydi. Shunday bo'lsa ham, ba'zi olimlar bu masalaga o'z munosabatlarini, fikrlarini bildirib o'tishgan.

Hozirgi tilshunoslik nuqtayi nazaridan qaralsa, narsalar bilan ularning nomi orasida, umuman olganda hech qanday bog'lanish yo'q. Bu ko'pchilik olimlar tomonidan qayd etilgan. Chunki narsa bilan uning nomi orasida bog'liqlik bo'lganda tillarning soni 5000 dan ortib ketmasdi. Shuni aytib o'tish [kerakki](#), ayrim tillarning kelib chiqishini, masalan o'zbek, rus, hind, tojik va boshqa tillarning qachon paydo bo'lganini, qanday tarkib topganligini aniq bilish mumkin. Ammo, biror bir aniq tilning kelib chiqishi masalasini umuman tilning, insonlar nutqining paydo bo'lishi masalasi bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Hozir dunyoda mavjud bo'lgan jonli tillarning ham, ba'zi bir o'lik tillarning ham kelib chiqish tarixini o'rganish u qadar qiyin masala emas. Anchagina tillarning qachon paydo bo'lganligi, qachon tarkib topganligi aniqlangan. Biroq, yer yuzida umuman insoniyatga xos tilning qachon paydo bo'lganligi, dastlabki tillarda qanday so'zlar bo'lganligi, uning grammatik xususiyatlari nimalardan iborat ekanligi hal qilingan emas va hal qilinishi ham mumkin emas. Chunki bundan bir necha yuz ming yillar burun paydo bo'lib, keyinchalik nom-nishonsiz yo'qolib ketgan tillar ham bo'lgan.

**Adabiyotlar:**

1. Nurmonov A., Xakimov M. Lingvistik pragmatikaning nazariy shakllanishi // O'zbek tili va adabiyoti, 2001, 4-son, – B. 54-58.
2. Pautova M.A. Razvitie kommunikativnoy kompetentnosti studentov ekonomicheskix spetsialnostey: Diss... kand. ped. nauk.– Sibirskiy universitet putey soobsheniya, 2009. – S. 213.
3. . Qambarova, D. Y. (2022). Interactive Methods of English Teaching in Higher Education. Oriental Journal of Education, 2(1), 1-7.
4. Makhmudovna, A. Sh. (2022/3/4). Creative writing in grammar lessons. Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 258-260
5. Makhmudovna, A. Sh.(2022/3/4).Working With Texts In Grammar Lessons.barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali,261-263
6. Makhmudovna, A. Sh.( 2022/11/15).Lexical-Semantic Classification Of Concepts Related To Wedding And Marriage,(11)146-149
7. Makhmudovna, A. Sh. (2022/3/30).The Opportunity Of Motivation In Grammar Lessons. European Multidisciplinary Journal Of Modern Science, 646-649
8. Makhmudovna, A. Sh.( 2022/1/5)the role of motivating lessons in teaching german as foreign language: tips and ideas. Eurasian Journal Of Academic Research, (Volume 1 Issue9 2021 December)868,869,870
9. Makhmudovna, A. Sh.( 2022/12/1). The role of brain in language learning and teaching. Results Of National Scientific Research International Journal, 451-456
10. Makhmudovna, A. Sh.( 2022/12/1). Übungtypologie im deutschunterricht. International scientific and practical conference" the time of scientific progress", 114-119
11. Makhmudovna, A. Sh.( 2023/4/10). The meaning of independent decisions in lessons german as foreign language. Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali, 36-38
12. Makhmudovna, A. Sh.( 2023/4/10). Some opinios about independent decisions in german as foreign language lessons. Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali, 31-35
13. Makhmudovna, A. Sh.(2022). To'y marosimi va nikoh bilan bog'liq tushunchalarning leksik-semantik tasnifi. Fardu.ilmiy xabarlar,999
14. Makhmudovna, A. Sh.( 2021/10/25).The Content Of Teaching Foreign Languages. World Bulletin Of Social Sciences, 39-40
15. Makhmudovna, A. Sh.( 2021/12/30). The Role Of Hometasks In Teaching German As Foreign Language. Eurasian Journal Of Academic Research, 865,866,867
16. Makhmudovna, A. Sh. The Motivating Power Of Fairy Tales In Fpreign Language Classroom. Propescts Of Development Of Science And Education Conference Proceedings, 33,34
17. Makhmudovna, A. Sh. Nutq Madaniyatini Shakllantirishda So'z Va Muloqot Madaniyati Asosiy Omildir. Interdisciplinary Issues Of Aplied Linguistics And Actual Problems And Solutions In Distance Education, 337,338,339,340